

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Bugun institutning faollar zalida 9-may Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan **“Xotira abadiy-xotira mangu”** bayram tadbiri tashkil etildi

B A Y O N N O M A S I – 9

8.05.2023 yil

Denov tumani

Qatnashdi:

M.Mirzayev:-Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

**D.Yakubova:- Tarix va falsafa kafedrasi mudiri
Tarix va falsafa kafedrasi professor oqituvchilari
B.Nazirov,P.Normamatova, A.Mengliboyevlar
Tarix yo'nalishi 2, 3 kurs talabalari- 142 nafar**

K U N T A R T I B I:

- 1. 9-may Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “ Xotira abadiy-xotira mangu”nomli tadbirini nishonlash**

Tadbirni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.Mirzayev ochib berdi. Tadbirda Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Meredov Do'sek bobo hamda Xayrobod qo'rg'onida joylashgan 36691-harbiy qism vakillari ishtirok etishdi. Tadbir davomida Tarix va falsafa kafedrasi o'qituvchisi **D.Yakubova ma'ruza qildi:** Nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash



kasaba uyushmalarida an'anaga aylangan. **“Xotira va qadrlash kuni”**ni munosib kutib olish va nishonlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va

kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamkorligida joriy yilning 6-8 may kunlari qator urush va mehnat fronti fahriylari, nuroniylar, afg'on urushi qatnashchilari xolidan xabar olishni rejalashtirgan. Yurtimizning bugungi tinch-osoyshta hayoti uchun jasorat ko'rsatib fido bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yot etish esa eng oliy vazifamizdir. Zero "Inson aziz, xotira-muqaddas"dir. Degan fikrlarni aytib o'tdi.



Bayram dasturidan o'rin olgan kuy va qo'shiqlar, she'r va sahnalashtirilgan chiqishlar tadbir qatnashchilarining olqishlariga sazovor bo'lib, yig'ilganlarning ko'ziga yosh to'ldirdi. Yoshlarni vatanparvarlik, ajdodlar ruhiga hurmat, tinchlikning qadriga yetish, insonni e'zozlash kabi his-tuyg'ular asosida tarbiyalashga qaratilgan ushbu tadbir barchada katta



taassurot qoldirdi.tadbit so'ngida ishtirokchilarga ma'muriyat tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandilar.

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.Mirzayev hamda tarix va falsafa kafedrası mudiri D.Yaqubovalar ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Ushu tadbirdni tashlillashtirgan tarix va falsafa kafedrası o'qituvchilari va tadbirda faol ishtirok etgan talabalar rahbatlantirilsin.

Kafedra mudiri:

Yig'ilish kotibi



D.Yaqubova
D.Yaqubova

N.Bazarov
N.Bazarov